

O'ZBEKISTONDA LEGAL TECH SOHASIDA XALQARO RAQAMLI HUQUQ TEXNOLOGIYALARI STARTUP-FORUMINI TASHKIL ETISH

Tursunov Behruz

tursunovbehruz49@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Jinoiy-odil sudlov fakulteti 1-kurs A-potok 3-guruh talabasi.

Islombek Abdihakimov

Ilmiy rahbar,

Toshkent davlat yuridik universiteti kiber huquq kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14170588>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Legal Techning asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasida xalqaro raqamli huquq texnologiyalari startup-forumini tashkil etish, o'tkazish, ushbu forumdan ko'zlangan asosiy maqsadlar, xalqaro miqyosdagi tajribalarni o'zlashtirish shuningdek, raqamli huquq texnologiyalarini davlat organlari, muassasalari, tashkilotlari faoliyatiga keng taqdim etish orqali ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, xizmat sifatini yaxshilashi va xarajatlarni kamaytirishi haqida so'z boradi. Maqola xalqaro miqyosdagi raqamli huquq texnologiyalarini O'zbekistonga keng miqyosda olib kirish va modernizatsiyalash to'g'risida ham ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: LegalTech, modernizatsiyalash, huquqiy mexanizm, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, raqamli hujjatlar, qonunchilik bazasi, raqamli imzotizimlari.

ORGANIZING THE INTERNATIONAL DIGITAL LEGAL TECHNOLOGY STARTUP FORUM IN THE FIELD OF LEGAL TECH IN UZBEKISTAN

Abstract. In this article, the main directions of Legal Tech, the organization and holding of the international startup forum of digital legal technologies in the Republic of Uzbekistan, the main goals of this forum, the assimilation of experiences at the international level, as well as the use of digital legal technologies by state bodies and institutions, it is said that it can significantly increase work efficiency, improve service quality, and reduce costs by providing a wide range of services to the activities of organizations. The article also provides information on the large-scale introduction and modernization of international digital legal technologies to Uzbekistan.

Key words: LegalTech, modernization, legal mechanism, digitization, artificial intelligence, digital documents, legal framework, digital signature systems.

ОРГАНИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО СТАРТАП-ФОРУМА ПО ЦИФРОВЫМ ПРАВОВЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ В ОБЛАСТИ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассмотрены основные направления Legal Tech, организация и проведение международного стартап-форума цифровых юридических технологий в Республике Узбекистан, основные цели данного форума, а также усвоение опыта на международном уровне. В качестве использования государственными органами цифровых правовых технологий говорится, что они позволяют существенно повысить эффективность работы, улучшить качество обслуживания и снизить затраты за счет предоставления широкого спектра услуг деятельности учреждений и организаций. В статье также представлена информация о масштабном внедрении и модернизации международных цифровых правовых технологий в Узбекистане.

Ключевые слова: LegalTech, модернизация, правовой механизм, цифровизация, искусственный интеллект, цифровые документы, правовая база, системы электронной подписи.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarga, shu jumladan huquqiy xizmat ko'rsatish sohalariga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. "LEGAL TECH" atamasi ostida birlashtirilgan yuridik innovatsiyalar raqamli huquq texnologiyalarini rivojlantirishi mumkin.

Shu o'rinda "LEGAL TECH" o'zi nima va uning huquqiy faoliyatdagi o'rni qanday degan savol tug'iladi. Legal tech-huquqiy texnologiyalar, huquqiy xizmatlar va jarayonlarni smaraliroq va qulayroq qilish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llashni anglatadi. Bu soha, raqamli yechimlar, dasturiy ta'minot va avtomotlashtirish orqali huquqiy xizmatlarni taklif qilish va ularni boshqarishni osonlashtiradi. Legal Tech tushunchasi huquqiy faoliyatda axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotdan foydalanishni o'z ichiga oladi¹.

O'zbekiston Respublikasida raqamli huquq texnologiyalari sohasida startup- forumlarining tashkil etilishi mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim qadamdir. Bugungi kunda dunyoda raqamli transformatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan davom etmoqda. Huquqiy texnologiyalar sohasidagi yangiliklar, ayniqsa, zamonaviy biznes va qonunchilik tizimida katta o'zgarisharga olibkelmoqda.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, raqamlashtirish jarayonlari tezlashayotgan hozirgi davrda raqamli huquq texnologiyalarini keng jalb qilish zaruratga aylanib borayotganligi va bu esa, o'z navbatida har qanday soha, ayniqsa davlatning tashkilotlariga va ularning a'zolariga bir

¹ Suskind.Tomorrow's lawyers,2019.

qancha imkoniyatlar va qiyinchiliklar tug'dirayotgani ko'rsatilgan. Shu sababli raqamli huquq texnologiyalarini qanday foydakeltirishi va uni samarali joriy etish yo'llari haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli huquq texnologiyalarini O'zbekistonggayanada rivojlangan tarzda olib kirish va ularning samaradorligini oshirishda rolinianiqlashdan iborat.

Maqsadga erishishda quyidagi vazifalar belgilandi, jumladan:

1. O'zbekistonda xalqaro raqamli huquq texnologiyalari startup-foruminitashkil etishning foydali va zararli tomonlari;
2. Startup-up forumini tashkil etishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar;
3. Raqamli huquq texnologiyalarining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish;
4. Raqamli huquq texnologiyalarining O'zbekiston Respublikasida samaradorligini baholash
5. LEGAL TECH sohasida raqamli huquq texnologiyalarini amalga kengtadbiq etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

USULLAR

Ushbu tadqiqot raqamli huquq texnologiyalarining foydalarini kompleks o'rganish maqsadida miqdoriy va sifatiy usullarni qo'llagan holda olib borildi. Quyidagi tadqiqot usularidan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili: Raqamli huquq texnologiyalari sohasida Legal techning ahamiyati va o'rni haqida ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalardan nazariy asoslar o'rganildi. JSTOR, Google Scholar va HeinOnline kabi ma'lumotlar bazalaridanfoydlanildi. Tahlil jarayonida "the index of digital legal technologies in the field of legaltech", "о стартап-форумах, проводимых в Узбекистане" kabi kalit so'zlar orqali qidiruv amalga oshirildi va 1980-yildan boshlab to hozirgacha bo'lgan davr mobaynidanchop etilgan manbaalar ustuvorlik bilan tanlab olindi.

Kontent-tahlil: O'zbekiston Respublikasida advokatlik firmalarida, sud, notarius, ichki ishlar organlari, prokuratura va shu kabi o'z faoliyatida raqamli huquq texnologiyalaridan foydalanishi mumkin bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati onlayn va offline tarzda o'rganildi va Legal Tech vositalaridan foydalanish darajasi ko'rib chiqildi.

Chuqurlashtirilgan intervyu: Legal tech sohasida 3 nafar ekspert va o'qituvchi bilan onlayn tarzda intervyular o'tkazildi. Intervyular "Telegram" platformasi orqali amalga oshirildi va har bir intervyu o'rtacha 40-50 daqiqa davom etdi.

Intervyular jarayonida raqamli huquq texnologiyalarining davlat tashkilotlar va umuman jamiyat hayotidagi o'rni, afzalliklari, kamchiliklari va uni joriy etishdagi qiyinchiliklar bo'yicha

fikrlar almashildi.

Hodisani o'rganish (case study): Legal Tech sohasida raqamli huquq texnologiyalarini keng joriy etgan 1 ta notarius, 1 ta prokuratura va 2 ta advokatlik firmasining faoliyati va undan olingan tajribasi o'rganildi. Ushbu tashkilotlar qog'ozbozlikdan raqamli texnologiyalarga muvaffaqiyatli o'tgandan keyin erishilgan natijalar haqida ochiq manbaalardan va web-saytlardan ma'lumotlar olindi.

Qiyosiy tahlil: Raqamli huquq texnologiyalarini o'z faoliyatida keng joriy etgan vaetmagan tashkilotlar o'rtasida ularning erishgan natija ko'rsatkichlari taqqoslandi. Bunda tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari, mijozlar soni va ularning qoniqish darajasi kabi ma'lumotlar tahlil qilindi.

Qo'shimcha tarzda, hozirda raqamli huquq texnologiyalarini keng joriy etgan tashkilotlarning hozirgi va o'tmishdagi faoliyati kengtahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida etika normalari va ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillarigaqat'iy rioya qilindi. Shu sababdan, barcha ishtirokchilardan ularning shaxsiy ma'lumotlarini yozmasdan fikrlarini bildirish huquqi ta'minlandi.

So'rovnoma: Legal Tech sohasida raqamli huquq texnologiyalarini joriy etishga ehtiyoji bor va keng joriy etgan tashkilot a'zolaridan, Toshkent davlat axborot texnologiyalari universiteti talabalaridan, davlat tashkilotlaridan va jamoat vakillaridan O'zbekiston Respublikasida Legal Tech sohasida raqamli huquq texnologiyalari startup-forumini tashkil etish yuzasidan turli xil fikrlar, uni tashkil etishdagi moliyaviy va ijtimoiy qiyinchiliklar, xalqaro startup-forumida qatnashishi va taklif etilishi mumkin bo'lgan davlatlar haqida keng so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari SPSS statistik dasturi yordamida tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida raqamli huquq texnologiyalarining jamiyatimiz hayotida, ayniqsa davlat organlari va tashkilotlaridagi o'rni va foydasi bo'yicha quyidagi asosiy ma'lumotlar olindi:

Legal tech sohasida raqamli huquq texnologiyalaridan foydalanish darajasi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan advokatlik firmalarining a'zolari, notarius va davlat tashkilotlari a'zolarining 85%i u yoki bu darajada raqamli huquq texnologiyalaridan foydalanishmoqda. Bunda:

- 69% raqamli huquq texnologiyalaridan doimiy ravishda foydalanadi
- 17% ba'zi hollarda foydalanadi
- 10% umuman foydalanmaydi.

Raqamli huquq texnologiyalaridan foydalanish darajasi davlat tashkilotlariga nisbatan xususiadvokatlik, notariuslarda kengroq jalb etilgan (68% va 81% mos ravishda).

Shuningdek, korporativ huquq sohasida faoliyat yurituvchi advokatlar sud ishlarida ixtisoslashgan hamkasblariga nisbatan raqamli huquq texnologiyalaridan ko'proq foydalanadi (84% va 71% mos ravishda)².

Raqamli huquq texnologiyalarining O'zbekiston Respublikasidagi asosiy qo'llaniladigan yo'nalishlari:

Elektron hujjat almashinuvi: E-hujjat tizimlari, masalan, "Yagona elektron hukumat" platformasi orqali hujjatlarni raqamli shaklda yuborish va olish imkoniyati (foydalanish darajasi 60%).

Raqamli imzo: raqamli imzo tizimlari, hujjatlarni elektron shaklda tasdiqlash uchun ishlatiladi. Bu, hujjatlarning yaroqliligini va xavfsizligini ta'minlaydi (ulushi 50%dan oshgan).

Davlat xizmatlari portali: my.gov.uz. - fuqarolar va tadbirkorlar uchun turli davlat xizmatlarini onlayn tarzda olish imkonini beruvchi portal (ishlatilishi 80% dan yuqori).

Elektron murojaat : fuqarolar va tashkilotlar o'z murojaatlarini onlayn tarzda yuborishi uchun tizimlar (foydalanilishi 40%).

Raqamli arxivlash: hujjatlarni raqamli formatda saqlash va arxivlash tizimlari, bu esa hujjatlarni tezkor va oson topish imkonini beradi (davlat va xususiy sektorda raqamliarxivlash tizimlarida (foydalanish 50% dan yuqori).

E-Notarius: raqamli notarius xizmatlari, hujjatlarni raqamli formatda tayyorlash va tasdiqlash (xususiy notariuslar tomonidan foydalanish darajasi 20-30% atrofida).

Qonuniy axborot portallari: qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquqiy axborotlarni raqamli formatda taqdim etuvchi portallar (foydalanish darajasi 40% atrofida).

Legal Tech sohasida raqamli huquq texnologiyalarining jamiyatimizdagi eng muhim va asosiy foydalari. So'rovnoma va intervyular natijasida raqamli huquq texnologiyalarining davlat tashkilotlaridagi quyidagi asosiy foydalari aniqlandi:

Xavfsizlik va ishonchlik: Raqamli imzo va elektron hujjat almashinuvi orqali hujjatlarning yaroqliligini va xavfsizligini ta'minlaydi. Raqamli imzo orqali hujjatlarni tasdiqlash 40-60% xavfsizligini ta'minlaydi.

Samaradorlikni oshirish: Hujjatlarni tezkor tayyorlash va tasdiqlash, bu esa vaqtni tejashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llagan tashkilotlar samaradorligi 30-50% ga oshgan.

Onlayn xizmatlar: Fuqarolar va tashkilotlar uchun onlayn maslahatlar va xizmatlartaqdim

² 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra. Manbaa ru.wikipedia.org.

etiladi, bu esa masofadan turib huquqiy yordam olish imkonini yaratadi. Davlat xizmatlari portalida onlayn xizmatlar orqali murojaat qilgan fuqarolar ulushi 80% dan oshgan.

Shaffoflik: Murojaatlarni ko'rib chiqish va ijro jarayonlarini raqamli tizimlar orqalikuzatish imkoniyati, davlat xizmatlarining shaffofligini oshiradi. Raqamli tizimlar orqali murojaatlarni kuzatish imkoniyati 50-70% shaffoflikni oshiradi.

Resurslarni tejash: An'anaviy usullarga nisbatan raqamli texnologiyalar yordamida xarajatlar va resurslar (masalan, qog'oz) sarfini kamaytiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida xarajatlarni 20-40% ga kamaytirish mumkin. Respondentlarning 40% Legal Tech vositalarini joriy etish natijasida xarajatlar kamayganini ta'kidadi.

Bunda:

36% ma'muriy xarajatlar qisqarganini

55% qog'oz hujjatlar bilan ishlashga ketadigan xarajatlar kamayganini

19% xodimlar sonini optimallashtirish imkoniyati yuzaga kelganini bildirdi.

Tahlil va ma'lumotlar:

- Raqamli texnologiyalar orqali huquqiy ma'lumotlarni tahlil qilish va statistikalar yaratish imkoniyati, bu esa qaror qabul qilishda yordam beradi. Raqamli ma'lumotlardan foydalanish orqali tahlil va qaror qabul qilish samaradorligi 30% ga oshadi.

Yangi xizmatlar va imkoniyatlar:

- Yangi raqamli platformalar va dasturlar orqali huquqiy xizmatlar ko'rsatishda innovatsion yondashuvlar joriy etiladi. Ularning taqdimoti 78% ga oshishikutilmoqda.

Ishtirokchilarning 78% raqamli huquq texnologiyalari tufayli mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifati yaxshilanganini qayd etdi.

Jumladan:

- 62% huquqiy tahlil sifati oshganini

- 57% mijozlarga tezkor javob berish imkoniyati kuchayganini

- 51% murakkab huquqiy masalalarni hal etish qobiliyati ortganini ma'lum qildi.

Kadrlar tayyorlash: Raqamli texnologiyalar bilan ishlash uchun mutaxassislar tayyorlash va huquqiy ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari o'z ichiga olgan huquqiy ta'limda ishtirok etayotgan talabalarning ulushi 40% ga yetgan.

O'zbekiston Respublikasida legal tech sohasida xalqaro raqamli huquq texnologiyalari startup-forumini tashkil etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud.

Ushbu qiyinchiliklarni ilmiy va rasmiy usulda quyidagicha tahlil qilish mumkin

A) Infratuzilma yetarli emas. Raqamli huquq texnologiyalarini qo'llab- quvvatlovchi

infratuzilma hali to'liq rivojlanmagan. Yangi texnologiyalar uchun zarur bo'lgan internet tezligi va xavfsizlik darajasi ba'zi hududlarda muammoli bo'lishi mumkin.

B) Yuridik doiradagi tartib-qoidalar. Legal tech sohasidagi startup-larni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yuridik va normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi.

Raqamli xizmatlar va platformalar uchun aniq tartib-qoidalar yo'qligi muammo tug'diradi. Bugungi kunda, qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki ma'sul vakillar tomonidan yetarlicha normativ yoki huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmagan.

C) Moliya va investitsiya manbalari. Raqamli texnologiyalar sohasidagi investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklar mavjud. Startup-lar uchun moliyaviy resurslar va qo'llab-quvvatlash tizimlarining yetishmasligi. Respublika miqyosida xalqaro startup-forumlari uchun yetarli darajada iqtisodiy manbaalar ajratilmasligi ehtimoli yuqori.

D) Malakali kadrlarga ehtiyoj. Legal tech sohasida malakali mutaxassislar talab oshib bormoqda, lekin ularni tayyorlash va jalb qilish masalalari haligacha muammo bo'lib qolmoqda.

E) Xalqaro hamkorlik. Xalqaro darajada o'zaro hamkorlik va tajriba almashishning yetarli darajada rivojlanmaganligi, bu esa global tendentsiyalarni kuzatishni va tadqiqotlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi³. Xalqaro darajada o'zaro hamkorlik va tajriba almashishning yetarli darajada rivojlanmaganligi, bu esa global tendentsiyalarni kuzatishni va tadqiqotlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

F) Maqsadli auditoriya va bozorni tushunish. Raqamli huquq texnologiyalari uchun maqsadli auditoriyani aniqlash va ularning ehtiyojlarini o'rganish masalalari. Mahalliy bozorning o'ziga xosligi va talablarini to'g'ri baholash qiyin.

G) Innovatsion muhit yaratish. Innovatsion ekotizimlarni shakllantirishda to'siqlar mavjud. Raqamli texnologiyalarni qo'llashda tajribani oshirish va tajriba almashish uchun samarali platformalar yetishmaydi. Bu borada, respublikadagi⁴ Legal tech sohasidagi mutaxassislar tomonidan yetarlicha innovatsion muhit va platformalar ishlab chiqilmagan.

Ijtimoiy qabul qilish. Raqamli huquq texnologiyalarining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi ham muammo bo'lishi mumkin.

Odamlar o'zlarining huquqlarini raqamli platformalarda himoya qilishga tayyoremasliklari ehtimoli.

³ researchgate.net.-scientific knowledge center

⁴ cyberleninka.ru.

Globalizatsiya tez va shiddat bilan kirib kelyotgan bir paytda, odamlar asta-sekin bunday virtual muhitga moslashishmoqda, lekin odamlarda, ayniqsa yoshi kata odamlarda hali ham raqamli texnologiyalar sohasida dilemma mavjud. Respondentlarning 45%i Legal Tech vositalaridan foydalanish jarayonida ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar mavjudligini bildirdi.

MUHOKAMA

O'zbekistonda xalqaro raqamli huquq texnologiyalari startup-forumini tashkil etish, mamlakatimizda huquqiy tizimning samaradorligini oshirish va raqamli transformatsiyani tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli huquq texnologiyalari davlat tashkilotlariga samaradorlikni oshirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkoniyatini taqdim etadi. Onlayn platformalar orqali fuqarolar o'z murojaatlarini qulay va tezkor tarzda yuborishlari, davlat organlariga esa murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, davlat xizmatlarining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash orqali fuqarolar ishonchini oshirishga yordam beradi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joziki, raqamli huquq texnologiyalari jamiyatning har bir qismiga, jumladan, fuqarolarga, tadbirkorlarga va huquqiy xizmatlardan foydalanuvchilarga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar orqali yuridik xizmatlarga kirishni osonlashtirish, huquqiy bilimlarni oshirish va huquqiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa, jamiyatning huquqiy ongini oshirishga va fuqarolarni huquqiy jihatdan himoya qilishga hissa qo'shadi. Ushbu yangitajribaning yana bir dolzarbligi shundaki, xususiy advokatlik firmalari va notariuslar raqamli texnologiyalar yordamida mijozlarga yanada sifatli va samarali xizmatlar taklif qilishlari mumkin. Elektron hujjat almashinuvi, raqamli imzo va onlayn maslahatlar kabixizmatlar, advokatlar uchun vaqt va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Bu esa, firmalarning raqobatbardoshligini oshiradi va mijozlar bilan munosabatlarni kuchaytiradi.

Startup-forumi mamlakatimizga raqamli texnologiyalar sohasida bir necha yangiliklar va imkoniyatlar taqdim etishi, mamlakat aholisi va organlarida, tashkilot va muassasalarda raqamli huquq texnologiyalar sohasida rivojlanishni talab etuvchi bir qancha ehtiyojlar mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga moliyaviy to'siqlar, texnik bilimlar yetishmasligi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar Legal tech'nikeng joriy etishga to'sqinlik qilayotgani ham ko'rindi.

Startup-forumi xalqaro forum sifatida, O'zbekistonning legal tech sohasidagi mutaxassislari va xorijiy ekspertlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatini taqdim etadi.

Bu, mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega, chunki xorijiy tajribalarni o'rganish, mahalliy mutaxassislarning malakasini oshiradi.

Forum davomida huquqiy sohadagi raqamli texnologiyalar haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadga muvofiqdir.

Bu, fuqarolar va tashkilotlar o'rtasida raqamli huquq texnologiyalarining afzalliklari haqida tushunchani oshiradi, bu esa ularni qabul qilish va foydalanishga tayyor qiladi. Tadbir kadrlar tayyorlash uchun muhim platforma bo'lishi katta ehtimol bilan kutiladi. Mutaxassislar uchun treninglar, master-klasslar va seminarlar o'tkazish, yuridik sohadagi raqamli texnologiyalar bo'yicha yangi ko'nikmalarni o'rganishga imkon beradi.

Bu esa, kelgusida raqamli huquq xizmatlarining sifatini oshirishga yordam beradi. Legal tech sohasidagi o'sish iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Raqamli xizmatlar orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish imkoniyati mavjud.

Raqobatbardosh muhit, yuridik xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi, bu esa oxir-oqibatda iste'molchilar uchun foyda keltiradi. Forum doirasida o'zaro fikr almashish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati, kelajakdagi yuridik xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, global tajribalarni o'rganish, O'zbekistonning yuridik tizimini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro startup-forumini o'tkazish bo'yicha tadqiqot davomida aniqlangan Legal tech'ning asosiy yo'nalishlari va vositalari (hujjatlarni avtomatlashtirish, huquqiy ma'lumotlar bazalari, vaqtini hisobga olish tizimlari va boshqalar) Katz⁵ (2013) tomonidan taklif etilgan tasnifga mos keladi. Biroq, sun'iy intellekt va blockchain texnologiyalarining nisbatan past darajada qo'llanilayotgani (41% va 23% mos ravishda) bu sohada hali katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Legal Tech sohasida raqamli huquq texnologiyalarini joriy etishdagi qiyinchiliklar bo'yicha olingan ma'lumotlar Bues va Matthaey (2017) ning Yevropa advokatlari orasida o'tkazgan tadqiqoti natijalari bilan ko'p jihatdan o'xshash. Moliyaviy to'siqlar, texnik bilimlar yetishmasligi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq xavotirlar har ikkala tadqiqotda ham asosiy muammolar sifatida aniqlangan.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u forum doirasida o'zaro fikr almashish, ilmiy izlanishlar va innovatsion g'oyalarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Bu, legal tech sohasidagi yangi yondashuvlar va metodologiyalarni o'rganishga xizmat qiladi. Qo'shimcha sifatida raqamli huquq texnologiyalarining ta'sirini kompleks o'rganish orqali mavjud nazariy bilimlarni amaliy ma'lumotlar bilan boyitdi. Shuningdek, Legal Tech vositalarini samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa raqamli texnologiyalar yordamida yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish, fuqarolar va tashkilotlarga qulay va tezkor xizmatlar taqdim etish

⁵ Katz (2013), Hermetia Guttermittel Gbr. Baruth, Germany

imkoniyatini yaratadi va Legal Tech imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatib berganida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar advokaturalar faoliyatini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida tanlangan namunaning nisbatan kichikligi va geografik chegaralanganligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, Legal Tech sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi tufayli olingan natijalar vaqt o'tishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

Legal Tech'ning alohida huquq sohalariga (masalan, intellektual mulk huquqi, inson huquqlari va boshqalar) ta'sirini chuqurroq o'rganish;

Legal Tech vositalarini joriy etishning uzoq muddatli natijalarini baholash uchun longitudinal tadqiqotlar o'tkazish;

Turli mamlakatlar va huquqiy tizimlar o'rtasida Legal tech'ni qo'llash bo'yicha qiyosiy tahlillar o'tkazish;

Sun'iy intellekt va blockchain kabi ilg'or texnologiyalarning advokatura sohasigata'sirini batafsil o'rganish;

XULOSA

O'zbekistonda xalqaro raqamli huquq texnologiyalari startup-forumini tashkil etish, mamlakatimizda huquqiy tizimni yangilash va raqamli transformatsiyani tezlashtirish uchun muhim platforma hisoblanadi. O'zbekiston hukumati 2020 yilda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini e'lon qildi. Ushbu strategiya raqamli xizmatlarni joriy etish va ularning sifatini oshirishni maqsad qilgan. Startup-forumi bu strategiya doirasida amaliyot va nazariyani birlashtirish imkonini beradi. 2022 yilda O'zbekistonning ilmiy-tadqiqot muassasalarida legal tech sohasida 15 dan ortiq tadqiqotamalga oshirildi, ulardan 7 tasi xalqaro konferensiyalarda taqdim etildi. Forum, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga joriy etishga yordam beradi.

Tadqiqotdan olingan natijalarga ko'ra, innovatsion g'oyalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, malakali kadrlarni tayyorlash va jamiyatda huquqiy ongini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Forum nafaqat yurtimizda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtiradi, balki iqtisodiy rivojlanish va huquqiy xizmatlar sifatini oshirishga ham hissa qo'shadi. Shuning uchun, ushbu tadbirni tashkil etish uchun zarur shartlar va resurslarni tayyorlash, O'zbekistonning huquqiy tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, O'zbekistonning legal tech sohasida xalqaro startup-forumi, raqamli xizmatlar va huquqiy tizimni yangilashda yangi imkoniyatlarni ochadigan platforma sifatida qaraladi.

Bu, O‘zbekistonni raqamli huquq texnologiyalarida yetakchi davlatlardan biriga aylantirishga yordam beradi.

№	Muammo	Tavsiya va takliflar(Nazariy)	Tavsiya va takliflar(Amaliy)
1.	Moliyaviy to‘siqlar	Xalqaro startup- forumiga va raqamli texnologiyalarga sarmoya kiritishning foydali taraflari haqidatushuntirish	Startup-forumini tashkilot uchun davlat hokimiyati bilan kelishilgan holda,moliyaviy manbaalarga aga bo‘lishing ma’lum miqdori va muddatini kelshishi,bosqichma-bosqich joriy etish rejasini ishlab chiqish;
2.	Texnik bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi	Maktablardan boshlab tooliy ta’lim muassasalariga qadar yoshlarda Legal Techni asosiy tushunchalarini shakllantirish	Muntazam treninglar va vebinarlar tashkil etish; ichki "texnologiya elchilari"ni tayinlash,shuorqli xalqaro forumga tayyorgarlik boshlash
3.	Malakali kadrlarga ehtiyoj	Legal tech sohasida shusoxada “professional” bo‘lganlardan nazariy darslar olishga ko‘maklashish va shu orqali malakali kadrlarnioz muddat ichda shakllantirish	Hozirda o‘z faoliyatida raqamli huquq texnologiyalaridan foydalanayotgan atshkilot, korxona, muassa salar bilan haftalik vaoylik tashriflar tuzish
4	Ijtimoiy qabul qilish	Aholiga keng ko‘lamdaxalqaro startup forumi davlatga har jihatdan foyda keltrishi haqida ilmiy tushuntirishlar berish;raqamli huquq texnologiyalarini “qog‘ozbozlikdan ko‘ramutlaqo xavfsiz va samarali tizim ”ekanliginazariy asoslar bilan ko‘rsatish	Jamiyatda shu soha vakillari tomonidan kengko‘lamli targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish

REFERENCES

1. Nate Latessa.(2014).A guide to e-discovery technology and collection.
2. Wilfried Bernhardt.(2017). Digitalisierung der Justiz – Herausforderungen und Potenziale.International Review of Law andEconomics, 38, 29-42.
3. S.Sharma va Sony A.L.Reeta (2021) eLegalls: Enriching a Legal Justice System in the Emerging Legal Informatics and Legal Tech Era.Publishedonline by Cambridge University Press
4. M.Mike (2011) Legal etch tips and the index of digital legal technologiesin the field of legal tech.Georgina Bar journal.
5. Susskind, R. (2019). Online courts and the future of justice. OxfordUniversity Press.
6. Susskind, R., & Susskind, D. (2015). The future of the professions: Howtechnology will

transform the work of human experts. Oxford University Press.

7. Nelson Sharon.D and Simek John.W(2012). Tomorrow in legal tech(article)
8. Ashley, K. D. (2017). Artificial intelligence and legal analytics: Newtools for law practice in the digital age. Cambridge University Press.
9. Chervonyuk.V.I.(2021). ИННОВАЦИОННЫЕ ЮРИДИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ.
Doctor of jurisprudence, the professor of the Moscowuniversity of the Mia of Russia named after.V.YA.Kikot.
10. Ilmiy.uz(2023).Innovate & Launch: Startup Workshop
11. Remus, D., & Levy, F. (2017). Can robots be lawyers: Computers, lawyers, and the practice of law. Georgetown Journal of Legal Ethics, 30,501-558.
12. Branko Milanovic.(2022).Why Globalization Is in Trouble,source:yaleglobal online.